O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
SIRDARYO VILOYATI
BOSHQARMASI

Sirdaryo viloyati 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Hondamir ko‘chasi, 7-uy, Tel/Faks: 71-203-11-08, E-mail: sirdarya_davekspert@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Otajonov Mansurjon Ma’rufjon O‘g‘li

Sana: 02-07-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

249531 - SONLI

Obyekt nomi: “Sirdaryo viloyati Boyovut tumani Yangi avlod MFY hududida “Yangi O‘zbekiston” massivida namunaviy loyiha asosida bir yo‘lakli 9 qavatli 49 xonadonli 1 va 2 xonali turar-joy binosining qurilishi” (Bosh reja bo‘yicha raqami 3-13 sonli uy)	
Buyurtmachi:	SERVIS MOBILE 775 MCHJ
Bosh loyihachi:	"QISHLOQQURILISHLOYIHA" DAVLAT MUASSASASI
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	tanlov asosida
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	078983

1. Loyihalash uchun asos.

1.1.“Elektron-onlayn auksionlarni tashkil etish”AJning 2024-yil 30-avgustdagi YU-1203841-sonli bayonnomasi. Lot raqami va mol-mulk turi: № 10809453. (Yangi O‘zbekiston))

1.2. Belgilangan tartibda tasdiqlangan va kelishilgan loyiha topshirig‘i.

1.3. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 30-iyundagi 1724-1724212-229273-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshiriqlari.

1.4.“O‘ZGAShKLITI” MChJ Sirdaryo viloyati filialining 2024-yildagi muhandislik-geologik tadqiqotlari bo‘yicha xulosasi.

1.5. Buyurtmachi bilan loyihachi tashkilot o‘rtasida 2024-yil 02-oktyabrdagi 10-160-2024-sonli shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

Loyiha tarkibiga ko‘ra “Sirdaryo viloyati Boyovut tumani Yangi avlod MFY hududida “Yangi O‘zbekiston” massivida namunaviy loyiha asosida bir yo‘lakli 9 qavatli 49 xonadonli 1 va 2 xonali turar-joy binosining qurilishi” (Bosh reja bo‘yicha raqami 3-13 sonli uy) obyekti bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlarining elektron shakli.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish obyekti joylashgan maydon tavsifi.
Loyihadagi yangi quriladigan ko‘p qavatli turar-joy binosi obyekti Sirdaryo viloyati Boyovut tuman “Yangi avlod” MFY hududida joylashgan.
3.2. Qurilish maydonining xususiyatlari.
Me’yoriy qor tushish bosimi – So=0,50 KPa (50 kgs/m2) (QMQ 2.01.07-96).
Me’yoriy shamol tezligi bosimi – Wo=0,38<0,48 KPa (38<48 kgs/m2) (QMQ 2.01.07-96).
Hududning zilzilaviyligi – 7 ball.
Binoning zilzilaviylik bardoshliligi – 8 ball.
Tuproqning muzlash sathi – (-0.48<-0.70 metr).
Tashqi havo harorati hisobi – Tn=-15℃.
O‘rtacha yillik harorat – (+28.5℃).
Eng baland harorat – (+32℃<+36℃).
Eng past qishgi sovuq harorat – (-14℃<-18℃).
Binoning javobgarlik sinfi – III. (uchinchi).
Binoning konstruktiv yong‘in xavfi sinfi – C0.
Funktsional yong‘in xavfliligi bo‘yicha sinfi – F1.3
Mas’uliyat darajasi – II.
Olovbardoshlik darajasi – II.
3.3. Arxitektura yechimi. (9 qavatli turar-joy binosi. AR).
Binoning hajmiy-rejaviy yechimi 9 qavatli 1 daxlizli (seksiyali) 49 xonadonli 1 va 2 xonali xonadonli va yerto‘lasida 1,2, xonadonli 4 ta xonadonli turar-joy binosining funksional vazifasi, shuningdek, iqlim va mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda qabul qilingan. Turar-joy binosi 9 qavatli bo‘lib, rejadagi o‘lchamlari (A-J) 18.400 x (1-6) 18.600 metr bo‘lgan bitta blokseksiyadan (1-yo‘lak) iborat ixcham to‘rtburchak kompozitsiyani o‘z ichiga oladi. Blokseksiyada har bir qavatda uchtadan 2 xonali va ikkitadan 1 xonali honadonlar joylashgan.
Yashash honadonlari umumiy xonalar, yotoqxonalar, oshxonalar, qo‘shma sanitar uzellari, dahlizlardan iborat. Har bir qavatda 1-qavatdan 9-qavatgacha o‘zaro bog‘laydigan liftli xoll va zinapoya mavjud. Qavat balandligi h=2.87 metrdan. Umumiy balandligi h=+31.050 metr.
Sokol balandligi h=-1.200 metr sathda.
3.4. Texnik iqtisodiy ko ‘rsatgichlar. (9 qavatli turar-joy binosi. AR. TEP).
1. Honadonlarning umumiy yashash maydoni - 1168,86 m2.
2. Kvartiralarning umumiy maydoni (balkonlarni hisobga olmaganda) - 2224,98 m2.
3. Yozgi xonalarning umumiy maydoni - 208.80 m2.
4. Yerto‘laning umumiy maydoni - 265,48 m2.
5. Turar-joy binosining maydoni - 2835,60 m2.
6. Qurilish hajmi (yer usti qismi) (9448.85m3)
7. Qurilish hajmi (yer osti qismi) (964.15m3)
8. Qurilish hajmi (umumiy) - 10413.00 m3.
9. Qurilish maydoni - 344,70 m2.
3.5. Tashqi va ichki pardozlash. (9 qavatli turar-joy binosi. AR).
Yuk ko‘taruvchi devorlar - Qalinligi 200 mm. bo‘lgan quyma beton, 200 mm. Qalinlikdagi g‘ovakli beton bloklardan quyma teshiklarni to‘ldirish.
Tashqi devorlar tashqi tomondan izolyatsiya qilinadi. Mineral taloli bazalt plitalaridan issiqlik izolyatsiyasi γ=140 kg/m3 qalinligi-50mm, qalinligi - 5÷7mm. bo‘lgan yelimli suvoqda.
Pardozlash tashqi qatlami - Qalinligi 5÷7mm. bo‘lgan polimer to‘r bo‘ylab yelimli suvoq, keyinchalik travertin uchun dekorativ pardozlash. Yog‘och konstruksiyalar bo‘yicha ikki

tomoni polimer qoplamali profilli listdan shamollatiladigan chordoq tomi. Devorlarning gorizontal gidroizolyatsiyasi qalinligi 30 mm. bo‘lgan 1:2 tarkibli sement-qumli qorishmadan. Tashqi devorlarning perimetri bo‘ylab beton to‘shama quriladi. Beton sinfi. B7,5 kengligi 1000 mm, qalinligi 50 mm, qalinligi 100 mm. -150 mm bo‘lgan shag‘alli asos bo‘yicha.
Sokol – Suvoq qilinib ustidan dekorativ suvoq qilib chiqiladi.
Shift – Shiftni tekislab suvli bo‘yoq bilan bo‘yash, gipsokatondan va plastik qoplash.
Devorlar – Yaxshilangan qum-sement suvoqdan keyin xonalarga qarab bo‘yoq bilan bo‘yash.
“Xonadonlarning xonalari ichki pardozlash va ta’mirlash ishlari, quruvchi va buyurtmachilar o‘rtasida o‘zaro o‘zgartirilishi kelishilishi mumkin. Pollar – Beton qoplamali, laminat, keramik plitka, zinalar moy bo‘yoq qilinadi. “Xonadonlarning xonalari ichki pardozlash va ta’mirlash ishlari, quruvchi va buyurtmachilar o‘rtasida o‘zaro o‘zgartirilishi kelishilishi mumkin.
Derazalar – PVX plastik profildan. “Xonadonlarning xonalari ichki pardozlash va ta’mirlash ishlari, quruvchi va buyurtmachilar o‘rtasida o‘zaro o‘zgartirilishi kelishilishi mumkin.
Eshiklar – xonadonlarga kirish eshiklari temirdan. MDF va alyumin profildan yasaladi.
“Xonadonlarning xonalari ichki pardozlash va ta’mirlash ishlari, quruvchi va buyurtmachilar o‘rtasida o‘zaro o‘zgartirilishi kelishilishi mumkin.
Vitrajlar – Alyumin romli toblangan shishali oynadan. “Xonadonlarning xonalari ichki pardozlash va ta’mirlash ishlari, quruvchi va buyurtmachilar o‘rtasida o‘zaro o‘zgartirilishi kelishilishi mumkin.
3.6. Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun yechimlar. (9 qavatli turar-joy binosi. AR. NBSH).
Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun barcha qavatlarda chora tadbilar loyihalangan. Ichki yo‘laklarga yo‘naltiruvchi taktil qoplamalar yotqizilgan. Eshiklar ostonasiz qilingan. Pandus va tutqichlar qo‘llanilgan. Yo‘l belgisi o‘rnatilgan. Avtoturargohda joy ajratilgan. Loyihalash ishlarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarga qulay va to‘siqlarsiz muhit yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-266-son qarori bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturining tashkilotlarga qarashli binolarga kirish va chiqish, fuqarolarni qabul qilish joylari hamda sanitariya-gigiena shoxobchalarini (hojatxonalarini) nogironligi bo‘lgan shaxslarning erkin foydalanishi uchun moslashtirish talablari bajarilgan. Buyurtmachi “SERVIS MOBILE 775” MCHJning 2025-yil 2-iyuldagi №37-sonli xatiga asosan loyihada bajarilmagan boshqa talablarni bajarishni ta’minlanishi kafolatlangan. Bajarilmagan boshqa talablar va ish turlari bo‘yicha buyurtmachi va loyihachi javobgar. “Nogironligi bo‘lgan shaxslarga” uchun qurilmalar va jixozlarini o‘rnatish, qurilish jarayonida buyurtmachi va quruvchi o‘rtasida aniqladi. Barcha talablar bajarilishini ta’minlash va javobgarlikni o‘z zimmasiga olgan holda buyurtmachi ijobiy xulosani qabul qilishi bilan unga yuklanadi.
3.7. Energiya samaradorligi va enrgiya tejamkorligi.
Alyumin eshiklar, va PVX derazalar standart 1 kamerali profil, ikki tomonlama energiya tejaydigan oynali. Barcha derazalar shamollatish uchun murakkab ochilish qurilmalariga ega.
Tashqi devorlari – Tashqi devorlari mineral bazalt tolali yoki boshqa yonmaydigan turga mansub mineral plitka qoplama bilan qoplanadi.
Tom qoplamasi himoya materiali – Metal yuzali profil otsinkovka qoplama. Yog‘och konstruksiya ustidan polimer qoplamasi qoplanadi.
Tom issiqlik qoplamasi – Mineral bazalt qoplamasi tom qismi yonmaydigan turdagi issiqlik saqlovchi materiallar qo‘llaniladi.
Eshik romlarini-issiqlik saqlovchi va zamonaviy eshik romlarini o‘rnatilgan, binoning kirish eshiklariga o‘zi yopiluvchi mexanizmlar o‘rnatilgan.

Qo‘shimcha elektr zahirasi uchun quyosh panelli jamlanma o‘rnatilgan.

Qo‘shimcha issiq suv ta’minoti uchun quyosh panelli suv isitgich jamlanmasi o‘rnatilgan. Binoni ichki xonalari va yo‘laklarini yoritish tizimida energiya tejamkor LED (turidagi) belgili yoritgich panellar qo‘llanilgan.

3.8. Konstruktiv yechimlari qisqacha ma’lumot:

Binoning o'qlar bo'yicha umumiy o'lchamlari - 18.6x18.4m, to'g'ri to'rtburchak shaklida;

Bino qavatliligi - 9 qavatli, yerto'lali;

Poydevor qurish uchun dastlab yer qazish ishlari bajariladi;

Poydevori - B20 sinfli yaxlit quyma temirbeton plitadan iborat, kesim qalinligi 800mm.

Poydevor qismlarining ostki va yon tomonlari tuproq namligidan himoyalanadi;

Yerto'la devorlari - B20 sinfli yaxlit quyma temirbeton devorlardan iborat, kesim qalinligi 200mm;

Yuk ko'taruvchi devorlari - B20 sinfli hajmli yaxlit quyma temirbeton devorlardan iborat, kesim qalinligi 200mm;

Orayopma va tomyopma elementlari - B20 sinfli yaxlit quyma temirbeton plitalardan iborat, kesim qalinligi 150mm;

To'ldiruvchi devorlari va pardevorlari - gazobetonli bloklar terimidan iborat. Pardevorlarni kuchaytirish metall ustun konstruksiyalri hamda gorizontal setka elementlari yordamida amalga oshiriladi;

Zina konstruksiyasi - B20 sinfli quyma temirbeton marsh va maydonchalardan iborat kompeks konstruksiyalardan tashkil topgan;

Tom qismi - yog'och konstruksiya elementlari ustidan profnastil qoplamalari o'rnatiladi;

Otmostka - bino perimetri bo'ylab, kengligi 1000mm li beton to'shama yotqiziladi.

3.9. Yong‘in xavfsizligi bo‘yicha qisqacha ma’lumot.

Loyiha bilan 1 ta blokdan iborat 9 qavatli turar joy binosi qurilishi rejalashtirilgan.

Turar joy binosining sokol qavatida texnik va yashash xonalari, 1-9 qavatlarida yashash kvartiralari joylashtirilishi, binoning tomiga chiqish ichki zinapoya orqali. Sokol qavatida chuqurchalar bilan ta’minlangan derazalar, bevosita tashqariga chiqish evakuatsiya (binoning ikki tarafidan) yo‘llari tashkil etilgan. Tom qismi – yassi. Lift qurilmasi 1-qavatdan pastga tushmaydigan qilib loyihalangan.

Konstruksiyalarning chegaralangan holatlariga ko‘ra, binoning olovbardoshlik darajasi – II, konstruktiv yong‘in xavfi sinfi – S0, funksional yong‘in xavfi sinfi - 1.3. Turar joy binolarining balandligi +24,8 m (eng yuqori qavatining ochiladigan eshigining pastki chegarasigacha).

Yong‘in xavfsizligini ta’minlash maqsadida quyidagi tadbirlar ko‘zda tutilgan:

Turar joy binolari tashqi devorlarining izolyatsiyasi yonmaydigan materiallardan (travertin), har bir kvartiralardan ochiq turdagi (chiqish joyi, chetidan (tores) derazagacha eniga 1,2 m dan kam bo‘lmagan yopiq devor bilan ta’minlangan holda) balkonlarga chiqish, tom qismiga metall tutqichlar, bino atrofida yong‘in-qutqaruv avtoekipajlari harakatlanishi uchun qattiq qoplamali yo‘l, sokol hamda tepa qavatlar kvartiralarining yo‘lak va oshxona qismlarida yong‘in signalizatsiya tizimi, evakuatsiya chiqish joylarida yong‘in signalizatsiyasining qo‘lda ishlovchi tashvishgohlari, yer usti qavatlaridan evakuatsiya uchun L1 tipdagi zina kataklari, yong‘in o‘chirish tashqi manbaasi sifatida yong‘in o‘chirish gidrantlari o‘rnatilishi ko‘zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Elektr ta’minoti bo‘yicha qisqacha ma’lumot:

Elektr yoritish.

Elektrotexnik qism QMQ va PUEga muvofiq loyihalash topshirig‘i asosida bajarilgan.
Elektr ta’minotining ishonchliligi bo‘yicha turar-joy binosi II toifali iste’molchilar qatoriga kiradi.
Xonadonlar ta’minot liniyalari stoyaklarining hisobiy yuklamalari, shuningdek kirishdagi hisobiy yuklamalar bir vaqtlilik koeffitsiyentini hisobga olgan holda bitta xonadonga to‘g‘ri keladigan solishtirma yuklama va xonadonlar sonidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.
Ushbu loyiha quyidagilarni elektr energiyasi bilan ta’minlashni nazarda tutadi:
a) kvartiralar;
b) uyni umumiy yoritish;
v) liftning kuch qurilmasi;
g) nasoslar.
Kiritish-taqsimlash qurilmasi sifatida VRU turidagi panel qabul qilingan.
Uy-joyning elektr energiyasini hisobga olish elektron hisoblagich bilan ta’minlanadi.
Umumiy uy iste’molchilarini hisobga olish VRU kirish-taqsimlash qurilmasiga o‘rnatilgan elektron hisoblagich yordamida amalga oshiriladi.
Qavat shchitlari sifatida har bir qavatning xolida o‘rnatilgan QE shchitlari qabul qilingan bo‘lib, ularda EX-18 turidagi elektron hisoblagichlar o‘rnatilgan.
Kvartira shchitlari sifatida guruhli bir fazali avtomatik uzgichli SHRN tipidagi shchitlar qabul qilingan. Xonadon shchitlari xonadonlarning kirish yo‘laklariga o‘rnatilgan.
Qavat shchitlariga magistral tarmoq yerto‘ladagi kabel lotoklarida va skobalarda VVGng kabeli bilan bajariladi.
Zina kataklari, xollar ishchi yoritilishining ta’minlovchi tarmog‘i VPGng kabeli bilan kabel lotoklarida, kabel-kanallarda bajariladi, devorlar bo‘ylab shtrablarda yashiringan.
Yoritgichlar turini tanlash xonaning vazifasi va atrof-muhit xususiyatlariga muvofiq amalga oshiriladi.
Kvartiralarning barcha xonalarida QMQ 2.08.01-05 ga muvofiq klemma kolodkalari, oshxona va dahlizlarda klemma kolodkalari va osma patron, birlashtirilgan sanitariya tugunlarida esa yoritgichlar o‘rnatilishi ko‘zda tutiladi.
Umumiy uy iste’molchilari uchun yorug‘lik manbai sifatida yorug‘lik diodli lampalar qabul qilingan.
Umumiy uy iste’molchilarining elektr yoritilishini boshqarish mahalliy o‘chirgichlar va FCS turidagi yoritgichlar o‘rnatilgan bir zumda ulanish akustik sensori bilan amalga oshiriladi.
Kvartiralarning guruhli tarmoqlari monolit devorlar va orayopmalarning shtroplarida, gipsokarton to‘siqlarda PVX ning gofrlangan quvurlarida yashiringan VVGng kabeli bilan bajariladi.
Qavat shchitlari poldan 1,2 m balandlikdagi tokchalarga o‘rnatiladi.
Xonadon shchitlari devorda, poldan 1,6 m balandlikda.
Loyihada har bir xonadonga tugmachali elektr qo‘ng‘iroqlar o‘rnatish ko‘zda tutilgan.
Qo‘ng‘iroq tugmasi poldan 1,8 m balandlikda o‘rnatiladi.
Elektr uskunalarning normal tok o‘tkazmaydigan barcha metall qismlari yerga ulanishi va nolga keltirilishi kerak. Barcha elektr montaj ishlari PUE va QMQga muvofiq bajarilsin.
Elektr energiyasini tejash uchun binoni muqobil energiya bilan ta’minlash rejalashtirilmoqda.
Muqobil energiya binoning tom qismida 550 Vt quvvatga ega quyosh panellarini o‘rnatish orqali ta’minlanadi.
Turar-joy binosining tashqi elektr ta’minoti (TET) avvalroq ko‘rib chiqilgan edi.

Turar-joy binosiga kirish kabel orqali amalga oshiriladi. Transformator podstansiyasidan taqsimlash shchiti (TRSh) gacha AVVG markali kabel 0,9 m dan kam bo‘lmagan chuqurlikda yotqiziladi, qumli yostiq ustiga yotqiziladi va ustidan g‘isht bilan himoyalanadi.

4.2. Isitish va shamollatish tizimi bo‘yicha qisqacha ma’lumot:

Isitish tizimi bo‘yicha qisqacha ma’lumot.

Issiqlik ta’minoti manbai etib -loyiha bo‘yicha qozonxonada joylashgan suv isitish qozonlari nazarda tutilgan.

Suv isitish qozonlaridan istish ta’minoti tizimi D76x3,5 mm quvurlardan kirituv tuguni (kollektor D159x4,00 mm) orqali isitish tizimlari uchun ishlatiladi.

Loyihada isitish tizimi ikki quvurli, nasosli tizim sifatida qabul qilingan.

Isitish tizimi uchun issik suv parametrlari 80-60°C bo‘lgan suvdir.

Issiq suv ta’minoti alohida ko‘rib chiqiladi.

Bimetall radiatorlar isitish moslamalari sifatida ishlatiladi.

Pollar va devorlar kesishmasida yotqizilgan quvurlar yonuvchan bo‘lmagan materiallardan yasalgan yenglarda o‘tkaziladi.

Tizimning quvurlari po‘lat va polipropilendan tayyorlangan, PN 25 turi.

Isitish tizimini tartibga solish uchun issiqlik uzatish quvurlari va ularning o‘lanishlarida isitish moslamalarini o‘chirish imkoniyati bor klapanlar yetkazib berish va qaytarish quvurlariga o‘rnatilgan.

Isitish tizimlaridan havoni olib tashlash uchun isitish moslamalarining yuqori nuqtasiga o‘rnatilgan yarim avtomatik havo chiqargichlar orqali ta’minlanadi.

Isitish tizimlarining ko‘targichlaridan suv tizimning pastki nuqtalarida joylashgan drenaj klapanlari yordamida chiqariladi.

Barcha magistral quvurlar va ko‘targichlar izolyatsiya qilingan.

Qavatlar, ichki devorlar va bo‘linmalar kesishmasidagi quvurlar yonmaydigan materiallardan yasalgan yenglarga yotqizilgan.

Shamollatish tizimlari binoda o‘rnatilgan.

Binoda shamollatish mexanik va tabiiy uslub bo‘yicha mo‘ljallangan.

Xonalarda havo almashinuvi hisoblash yo‘li bilan aniqlangan va shuningdek, havo ta’minotining sanitariya normasi bo‘yicha xisoblangan.

Shamollatish tizimlari binoda o‘rnatilgan.

Binoning maishiy xonalari shamollatish mexanik uslub orqali qabul qilingan.

Tabiiy va mexanik uslub shamollatish binoda ta’minlangan, xavo oqimi uyushmagan va derazalarning ochilish orqali amalga oshiriladi.

Havoni chikarib tashlash qurilish loyixalarida vertikal shamollatish kanallari orkali mo‘ljallangan.

Ichkari xonalar havosining chiqishi tomning tepasiga chikarish bilan mo‘ljallangan.

Montaj va sozlash ishlari KMK 3.05.01-97 koidalari asosida bajarilishi ta’kidlangan.

4.3. Suv va oqava suv ta’minoti bo‘yicha qisqacha ma’lumot:

Sovuq va issiq suv ta'minoti: Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini hisoblash KMK 2.04.01-98 talablariga muvofiq amalga oshirilgan. Suv ta`minoti xo‘jalik-ichimlik maqsadida loyihalangan. Loyiha bo‘yicha bino yerto‘la qismida nasos qurilmalari uchun nasos xonasi ko‘zda tutildi va xonada bosim uchun Hudro MPS-E 2 CME3-3 (Qmax=10.4m3/soat, Hmax=39.4m, N=3.0KVT) nasoslar jamlanmasi loyixalashtirilgan. Maxsus chuqurchada suv ko‘tarish darajasiga qarab ishlovchi R1 1*230 V (Q=10.0m3/soat; H= 5.0m. N= 0.5kvt)

drenaj nasos o‘rnatiladi. Sovuq suv tizimlari PPRS Ødn=20.....75mm polipropilen quvurlardan ishlab chiqilgan. B1 va T3 tizimlarining quvurlari QMQ 2.04.01-98, 9.8-bandga muvofiq yashirin yotqizilgan. Loyiha doirasida bino tomiga 12 dona quyosh suv isitgichlari o‘rnatiladi. Ular suv tarmog‘i orqali sovuq suv bilan ta’minlanadi, ulardan chiqayotgan issiq suv (V=80l, N=1.5 KVT) elektr suv isitish moslamasi orqali iste’molchiga yetkaziladi. Quyosh issiq suv kollektorlariga kirish va chiqish quvurlari binoning chodirida yig'ilganda kvartiralarga taqsimlanadi. Issiq suv tizimi dn=20…50mm gacha bo‘lgan shisha tolali polipropilen quvur bilan loyihalangan. Issiq va sovuq suv uchun har bir xonadonga suv hisoblagichlar o‘rnatiladi.

Ichki oqova suv tarmoqlari: Oqova suv quvurlarini yotqizish dn-50mm, dn-100mm bo‘lgan polietilen quvurlardan, yashirin tarzda amalga oshiriladi. Qurilish inshootlaridan o'tish joylarida quvurlar gil`za bilan o'raladi.

Sanitariya-texnik jihozlar: san-uzellarda qo‘l yuvish uskunasi (umival’nik), unitaz, vanna va osh xonada idish yuvish qozoni (moyka) mayishiy extiyojlar uchun joylashtirilgan.

4.4. Yong'in signalizatsiyasi.

Qisqacha malumot: Loyihaning ushbu bo'limi dizayn xususiyatlari va QMQ 2.04.20-98, MKM 01- 04 ga muvofiq ishlab chiqilgan. Loyiha xavfsizlik va yong'in signalizatsiya tarmoqlarinio'rnatishni nazarda tutadi. Abonent tarmog'i KPSng(A) 2x2x0,75 ochiq simli va PVX kabel kanallarida olib boriladi va dahliz o't o'chirish stantsiyasida o'rnatilgan Pribor priyomno-kontrolnыy i upravleniya oxranna pojarnыy "RUBEJ" rusumli boshqaruv panellariga chiqariladi. Yong'in va o'g'irlik signalizatsiyasining elektr qabul qiluvchilarini elektr ta'minoti 3 - toifaga kiradi va bitta mustaqil quvvat manbalaridan amalgaoshiriladi. Asosiy quvvat 220V, 50Gts o'zgaruvchan tok bilan ta'minlanadi.

Bo'lim: Aloqa tarmog'i.

1. G-PON tarmog'ining tipik tuzilishi

Klassik PON tarmog'i quyidagilardan iborat:

Optik tarmoq oqimlarini (daraxtlarni) birlashtirishga xizmat qiluvchi markaziy stansiya qurilmasi OLT (Optik liniya terminali);

Optik tarqatish tarmog'i ODN (Optik tarqatish tarmog'i), quyidagilardan iborat:

Magistral optik oziqlantiruvchi (tolali);

Optik signalni optik daraxt shoxlariga ajratuvchi ajratgichlar;

PON tarmoq daraxtining optik tolalarini (filiallarini) tarqatish;

Oxirgi abonent qurilmasining turiga va tarmoqdagi splitter kaskadlari soniga qarab, optik tolali, Ethernet kabellari, xDSL, E1 bo'lishi mumkin bo'lgan terminalni tushirish abonent kabellari (Drop-terminations);

2. PON texnologiyasining afzalliklari PON texnologiyasi quyida sanab o'tilgan boshqa texnologiyalarga nisbatan bir qator inkor etilmaydigan afzalliklarga ega:

Tarmoqni qurishning arzonligi. Texnologiya ko'p sonli abonent terminallarini bitta optik tola orqali ulash imkonini beradi, bu esa tolalarni sezilarli darajada tejashga yordam beradi.

Kam tarmoqdan foydalanish va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari. Afzallik tarqatish tarmog'ida passiv uskunalardan foydalanish bilan bog'liq

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi Sirdaryo viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasining loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va Shaharsozlik kengashi ishchi organining 2025-yil 30-iyundagi 200803468-sonli xulosasi.

5.2. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, Atrof-muhitni muhofaza qilish va Iqlim o‘zgarishi vazirligi Davlat Ekologik Ekspertizasi markazi Sirdaryo viloyati filialining 2025-yil 22-apreldagi 01-02/09-1243-sonli Davlat Ekologik ekspertizasi xulosasi.

5.3.“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ “Sirdaryo hududiy filiali” ning elektr tarmoqlariga ulanish uchun 2025-yil 10-apreldagi 2421222886-sonli texnik sharti.

5.4. “Sirdaryo suv ta’minoti” AJning 2025-yil 15-apreldagi 01/08-122-sonli texnik shartlari.

5.5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.03.2018 yildagi 256-sonli va 20.04.2022 yildagi 200-sonli qarorlari talablariga qat’iy roiya qilingan holda buyurtmachi loyiha-smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda tegishli manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Loyiha-smeta hujjatlari ekspertizaga buyurtmachining e’tirozlarisiz taqdim qilindi.

6.2.Ekspertiza jarayonida soxa ekspertlari xulosasi izohlari buyurtmachi va loyihachi tomonidan qabul qilinib, loyihaga tuzatishlar va qo’shimchalar kiritildi.

6.3. Buyurtmachi tomonidan 3 440 Obyektlar loyihalarining zilzilabardoshlik va yong‘in xavfsizligi bo‘yicha berilgan ekspertiza xulosalari (m2) uchun to‘lov amalga oshirilgan. (smetasiz).

Yakuniy narx buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilishni tugatgandan so‘ng, nazorat o‘lchovi natijalariga ko‘ra, haqqoniy bajarilgan ish hajmiga muvofiq belgilanadi.

Obyektning qurilish narxi “Qurilish iqtisodiyoti instituti” MChJ tomonidan ishlab chiqilayotgan joriy narxdagi kataloglar, birja, amaldagi (haqiqiy, bozor sharoitlariga ko‘ra) narxlar va joriy vaqtda faoliyat olib borayotgan internetdagi bozor narxlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va ekspertizaga taqdim etilgan. Obyektning boshlang‘ich umumiy qiymati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahakamasining 2003-yil 11-iyuldagi №261-sonli qarori bilan tasdiqlangan. “Qurilayotgan (ta‘mirlaniyotgan) obyektning boshlang‘ich umumiy qiymatini aniqlash tartibi” bo‘yicha va O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tomonidan tasdiqlangan SHNQ 4.01.1609 va 2009-yil 30-iyuldagi №83-buyrug‘i asosida obyektning umumiy qiymati aniqlangan.

6.5.O‘zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi 684-son Qonuni va O‘zbekiston Respublkasi Vazirlar Mahkamasining 31.01.2022 yildagi 46-son qarori va ShNQ 4.01.16-09 me’yorlariga muvofiq obektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan yangi qurilish ishlari narxi bo‘yicha asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korxonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

6.6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.07.2022-yildagi yildagi PQ-332-son Qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, obektning cheklangan qiymati buyurtmachi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi "Loyihalarni va import kontraktlarni kompleks ekspertiza qilish markazi" DUKning ijobiy xulosasini hisobga olgan holda aniqlanadi. Ushbu qaror 2-ilovasining 1-bob, 4-bandiga asosan- "Binolar, inshootlar va muhandislik kommunikatsiyalarini kapital qurish va ta’mirlash bo‘yicha tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridini amalga oshirish uchun xarid qilish hujjatlari Markazga texnik topshiriq shaklida loyiha-smeta hujjatlari bilan birgalikda kiritiladi va ulardagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) hajmlari va narx parametrlarining asosliligi yuzasidan ekspertizadan o‘tkaziladi.

6.7. O‘zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi 4-bob 23,24,25-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 17.09.2021 yildagi №579-sonli qarorining 4-bandiga asosan "Qurilishi markazlashtirilgan manba’lar hisobiga moliyalashtiriladigan obektlarning boshlang‘ich qiymati Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy saytiga (stat.uz)

joylashtirib boriladigan qurilish materiallarining joriy narxlari, mashina va mexanizimlar xizmati uchun o‘rtacha narxlar hamda o‘rtacha ish haqi ko'rsatkichlaridan foydalangan holda shakllantiriladi" hamda mazkur qarorning 1-ilova 3-bob 29-bandiga asosan "Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlari bo'yicha buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir".

6.8. Buyurtmachi, loyiha muallifi va pudrat tashkilotlari Mehnat va texnika xavfsizlik qoidalariga hamda yong‘in xavfsizligiga rioya qilinsin.

6.9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.05.2021-yildagi 321-sonli qarorning 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida “Mualliflik nazorati”ni amalga oshirilishini ta’minlaydi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda “Sirdaryo viloyati Boyovut tumani Yangi avlod MFY hududida “Yangi O‘zbekiston” massivida namunaviy loyiha asosida bir yo‘lakli 9 qavatli 49 xonadonli 1 va 2 xonali turar-joy binosining qurilishi” (Bosh reja bo‘yicha raqami 3-13 sonli uy) ishlari yuzasidan loyiha-smeta hujjatlari kelgusida ko’rib chiqish va kelishish uchun tavsiya etiladi.

7.2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi 261-sonli qarori va ShNK 4.01.16-09 ga muvofiq, tanlov savdolarini o‘tkazish uchun obektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

Bosh ekspert: Elmurodov Asliddin Kulmurodovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Shukurov Rustam Sunnatovich, Abdullayeva Nodira Mirzanazarovna, Xakimov Olimjon Kamiljanovich, Niyazov Alisher Maxmudovich, Abdullayev Shavkat Rahmatulla O‘g‘li, Djurayev Sherali Axmatjanovich, Djabbarova Lenura Appazovna, Elmurodov Asliddin Kulmurodovich